

**PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING
KVALIMETRIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI VA
USTUVOR TAMOYILLARI.**

**СОДЕРЖАНИЕ И ПРИОРИТЕТНЫЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ
КАЛИМЕТРИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ.**

**CONTENT AND PRIORITY PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF
QUALIMETRIC COMPETENCE OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL
EDUCATION FIELD.**

*Iqboljonova Yodgoroy Iqboljon qizi
Qo'qon DPI iqtidorli talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogika ta'lism yo'nalishi talabalarining kvalimetrik kompetentlikni rivojlantirish mazmuni va ustuvor tamoyillari husisida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, Pedagogika ta'lism yo'nalishi talabalarining kvalimetrik kompetentligini rivojlantirishga yordam beruvchi omillar ham keltirib o'tilgan.

Абстрактный. В данной статье представлены некоторые мнения о содержании и приоритетных принципах формирования качественной компетентности студентов-педагогов. В статье также упоминаются факторы, способствующие развитию качественной компетентности студентов-педагогиков.

Abstract. This article presents some opinions on the content and priority principles of developing qualitative competence of students of pedagogy. The article also mentions the factors that contribute to the development of qualitative competence of students of pedagogy.

Kalit so'zlar. Kompetentlik, kvalimetrik kompetentlik, malaka, bilim, ko'nikma, talabalar, oliy ta'lif.

Ключевые слова. Компетентность, качественная компетентность, компетентность, знания, умения, студенты, высшее образование.

Keywords. Competence, qualitative competence, competence, knowledge, skills, students, higher education.

Kirish.

Pedagogika ta'lif yo'naliishi talabalarining kvalimetrik kompetentligini rivojlantirishga doir tadqiqot natijasi asosida oliy ta'lif muassasalari talabalarining kvalimetrik kompetentliligiga uning u yoki bu sohada muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilimlari, malakalari, ko'nikmalari va amaliy faoliyati tajribalari yig'indisi sifatida qaraldi. Shuningdek, oliy ta'lif muasssalari talabalarining kvalimetrik kompetentligi tushunchasi mazmun-mohiyatini kvalimetrik kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan kasbiy-pedagogik tayyorgalikning maxsus turi sifatida tushunamiz.

Pedagogik amaliyotda kvalimetrik kompetentlik darajasida xulosa chiqarish imkonini beruvchi kvalimetrik metodlarni muvaffaqiyatli qo'llanilishi uchun bilim, malaka va ko'nikmalar hajmini aniqladik. Kvalimetrik kompetentlik darajasini baholashda pedagogik obyektlar, o'quv jarayoni borishida, pedagogik amaliyot va malakaviy ishlarni bajarishda jarayon va hodisalar, kvalimetrik metodlardan foydalanish bo'yicha amaliy faoliyat tajribalari mavjudligi va sifatini hisobga olish zarur.

Adabiyotlar tahlili va metod.

Pedagogik kvalimetriya ko'p qirrali pedagogik jarayonga bog'liq holda o'qituvchining pedagogik faoliyatining tarkibi hisoblanib, pedagogika fanlari sohalari ichida eng muhim o'rin tutadigan. Shuni qayd etish kerakki, pedagogik kvalimetriya pedagogik jarayon va o'qituvchining pedagogik faoliyatining sifatini

belgilaydi. Pedagogik kvalimetriyaning metodologik muammolar shu kunga qadar ilmiy tadqiqotchilarning yetarlicha o'rganilmagan va bu sohadagi muammolar o'z yechimini kutmoqda. Adabiyotlar tahlili pedagogik kvalimetriyaning metodologik asoslari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ta'lim muassasalari oldiga quyiladigan davlat va ijtimoiy buyurtmalarga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, uning metodologik asoslari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining mantiqiy birligi qonuniyati asosida rivojlanganligini ko'rsatdi.

Tahlil va natijalar.

Hayot ta'lim tizimida ham ko'pgina boshqaruvchilarni shaxsning bilish faoliyatidagi o'zgaruvchan sifatlarni obyektiv baholashga o'rgatish zarurligini isbotlamoqda. Tadqiqotlar o'qitish va ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligining o'sishi o'quvchilar muvaffaqiyatini baholash sifatini oshirish bilan bevosita bog'liq ekanligi haqida dalolat bermoqda. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim natijalarini malaka va ko'nikmalar sifatida baholash tizimida qo'shimcha imkoniyatlar ochadi. Baholash usullari orasida kompyuter va masofadan testlashni tashkil qilishni o'z ichiga olgan testlar (sinovlar) muhim o'rinni egallaydi.

Ta'lim tizimlarida jumladan maktabgacha ta'lim tizimida ham bilimlarni nazorat qilishning ikki tamoyilidan foydalaniлади:

1) o'rganuvchining mavzu predmet sohasida bilimlari va talabalarning harakatlarini baholash qoidalari asosida uning harakatlarini baholash va bilim darajasini aniqlash;

2) tanlab olingan maxsus vazifalar to'plami va talabaning ularga bergen javoblari bo'yicha standartlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish.

Maktabgacha ta'lim tizimida nazoratning kompyuterlashtirilgan sinovlar texnologiyasi quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

a) interfaol vosita muhitining mavjudligi; ko'p predmetli qo'llash; sinov jarayonida mavzu predmet sohasining bo'lajak modelini tegishli darajada aks ettirish;

- b) sinov algoritmini tanlash imkoniyati; turli ta'lif texnologiyalariga qo'shish (biriktirish, integrasiya qilish) imkoniyati; profilini tuzish imkoniyati; ko'lami-o'lchamini o'zgartirish imkoniyati;
- c) ishslash, olish, o'rganish, amalga oshirishning osonligi, mavjudligi; foydalanuvchi uchun qulay interfeys;
- d) sinovning ko'p pog'onali vazifalari bazasini olib borish (yuritish);
- e) sinovni rejalashtirish va boshqarishni nazorat qilish/moslash imkoniyati;
- f) yaxshi natijalarga erishish va rag'batlantirilganlik darajasini oshirishga mo'ljallanganlik.

So'nggi davrlarda an'anaviy "nazorat" tushunchasining o'miga, "tashxis" tushunchasidan tashqari "monitoring" tushunchasi qo'llanila boshlandi. "Pedagog-ta'lif oluvchi" tizimida monitoring deganda ta'lif berish jarayoni maqsadlarini belgilashdan kelib chiqqan va ta'lif oluvchining o'zlashtirish darajalarini dinamikada nazarda tutadigan nazorat va tashxis qo'yish tadbirlarning yig'indisi tushuniladi.

Baho, baho qo'yish – o'qituvchi va talaba o'rtasidagi bir martalik harakat yoki o'zaro faoliyat bo'lib, uning natijasi ta'lifning muayyan bosqichida subyekt yutuqlarini aks ettiruvchi miqdoriy yoki sifatiy natijadir. Ta'lif olish natijalarini baholashda nazorat, natija, tekshirish, o'lchash, kuzatish, tahlil, xulosa chiqarish, o'rgatilganlik, daraja, ko'rsatkichlar mavjud.

Pedagogika ta'lif yo'nalishi talabalarida kvalimetrik kompetentlikni OTMning tegishli yo'nalishi bo'yicha tashkil qilinayotgan o'quv-tarbiyaviy ishlarning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Ushbu tarkibiy element muktabgacha ta'lif fanlari turkumi ("Matematika", "ona tili", "pedagogika", "psixologiya", "tarbiya", ni o'qitish, auditoriyadan va OTMdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish jarayonining umumiy mohiyatini ifodalaydi.

Kvalimetrik kompetentlikni rivojlantirishda muktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalari tomonidan sohaga oid fanlarini mustaqil o'zlashtirilishi hamda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish jarayoni – pedagogik amaliyot ham muhim o'rin tutadi.

Pedagogik manbalarda ilgari surilgan g'oyalarga tayangan holda maktabgacha ta'lismi yo'nalishi talabalarining kvalimetrik kompetentlikga egalik darajasi quyidagi metodlar yordamida baholanadi:

- 1) ta'lismi-tarbiya jarayonida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini bevosita o'rganish metodlari (pedagogik kuzatish, retrospektiv ish hujjatlari va o'quv hamda kasbiy faoliyat rejalarini o'rganish, suhbat, tahlil, boshqalar);
- 2) kvalimetrik kompetentlikga egalik darajasini tashxislashga yordam beruvchi maxsus metodlar (tashxisli vaziyatlar, anketa, test va boshqalar).

OTMdada pedagogika ta'lismi yo'nalishi talabalarining kvalimetrik kompetentligini to'laqonli shakllantirish bir qadar murakkab jarayon hisoblanadi. Binobarin, maktabgacha ta'lismi fanlari turkumi o'zida yirik hajmli bilimlarni qamrab olgan bo'lib, ularni talabalar tomonidan puxta o'zlashtirish muayyan vaqt va intellektual kuchni talab etadi.

Ta'lismi jarayonida quyidagi vazifalarni ijobjiy hal qilish talabalik davrida maktabgacha ta'lismi yo'nalishi talabalarining kvalimetrik kompetentlikka oid bilimlarni yetarli darajada o'zlashtirishlariga imkon beradi:

1. Pedagogika ta'lismi fanlari turkumini o'qitish jarayoniga innovatsion yondashish.
2. Mashg'ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil qilish.
3. O'qituvchi va talabalar o'rtasida kollaboratsiyani yuzaga keltirish.
4. Pedagogika ta'lismi fanlari asoslarini o'zlashtirishda talabalarning mustaqil faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratish.
5. Kichik guruhda ishslash orqali talabalarni ijodiy loyihalarni bajarishga yo'naltirish.
6. Talabalarning ijodiy faoliyatlarini rag'batlantirish.
7. Talabalarda o'quv-bilish faoliyatini mustaqil ravishda refleksiv tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Pedagogika ta'lismi yo'nalishi talabalarida kvalimetrik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Kvalimetrik kompetentlikning mohiyatini yorituvchi tushunchalarni

o‘zlashtirish (masalan: pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyat mazmuni, pedagog shaxsi, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, kasbiy (maxsus) kompetentlik, pedagogik kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, metodik kompetentlik, axborot kompetentligi, pedagogik ta'sir, pedagog odobi, muloqot madaniyati, mimika, pantomimika, pedagogik takt, faoliyat uslublari, pedagogik tajriba, pedagogik mahorat, ijodkorlik, muammoli vaziyat, muammoli vaziyatlarni hal etish, o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi va hokazolar).

2. Pedagogika ta’limni tashkil etishga texnologik va innovatsion yondashuv mohiyatini yorituvchi tushunchalarni o‘zlashtirish (masalan: ta’lim texnologiyasi, pedagogik texnologiya, an’anaviy yondashuv, tizimli yondashuv, pedagogik tizim, texnologik yondashuv, texnologik yondashuv tamoyillari, innovatsion yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ta’limi jarayonini loyihalash, loyihalash bosqichlari, ta’lim motivlari, o‘quv-bilish faoliyati, o‘quv-bilish faoliyatini boshqarish, bixevoirizm ta’limoti, ta’lim maqsadlari, ta’lim maqsadlarini oydinlashtirish, B.Blum taksonomiyası (tasnifi), innovatsion ta’lim shakllari, o‘qitishning faol va interfaol metodlari, grafik organayzerlar, ta’lim strategiyalari, muammoli ta’lim, o‘quv keyslari, vitagen texnologiyalar, o‘quv vazifalari tizimi, kreativlik, o‘quvchilarning kreativ xarakterdagi o‘quv-bilish faoliyati, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, nazorat turlari, test, test turlari, ta’lim natijalarini refleksiv baholash, ta’lim natijasi, ta’lim natijasini baholash va boshqalar).

Xulosa.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o‘quv jarayonini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilishga imkon beruvchi malaka va kompetensiyalarni o‘zlashtirish (o‘quv jarayonini ajratilgan vaqt bo‘yicha tashkil qilish, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini samarali uyushtirish, o‘quv materialini, shuningdek, samarali metodika (ta’lim shakli, metodi, vositalari, texnologiyalar)ni to‘g‘ri tanlash, o‘quv vositalari (ko‘rgazmali qurollar, bosma va vizual metodik ishlanmalar)ni yaratish, o‘quv topshiriqlari hamda nazorat-sinov ishi to‘plamini shakllantirish, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Foydalaniman adabiyotlar

1. Занина Л.В., Меньшикова Н.Л. Основы педагогического мастерства / Учеб.пособие для студ. пед. вузов. – Ростов-на-Дону, Феникс, 2003. – С. 238.
2. Раджапова З.Т. Дизайн тўгаракларида ўқувчилар ижодий қобилиятини ривожлантиришнинг методик асосларини такомиллаштириш: пед. фан.бўйича. фалс.докт. ... дис.автореф. – Т.: 2020. – 46-б.